



INGLIZ TILIDAGI ASPEKTUALLIKNING GRAMMATIK KO'RSATGICHLARI

Abdusalimov Suhrob Rustam o'g'li

Samarqand Davlat Tibbiyot Universitetining Tillar

Kafedrasi ingliz tili o'qituvchisi

E-mail: abdusalimovsuhrob202@gmail.com

***Anotatsiya:** aspektuallik nazariyasiga oid tadqiqotlar tahliliy o'rganib chiqildi va ularga asoslanilgan holda maqolaaning metodologik asosi shakllantirilgan.*

***Kalit so'zlar:** temporallik vazifasi, aspektual ma'nolar, fe'l kategoriyasi, fe'llarning dinamiklik semantikasi, fe'llarning stativlik semantikasi.*

Dunyoning ko'pgina tillarida aspektual ma'nolarning keng tarqalgan modellari mavjud bo'lib, ular turli ko'rsatgichlarning semantik yaqinligiga asoslangan. Mazkur ko'rsatgichlar vazifasini turli tipdagi temporal birliklar bajaradi. Jumladan, dinamik, stativ, xabitual vaziyat ko'rsatgichlari vazifasini ko'p hollarda temporal birliklar bajaradi

Aspektual kategoriyalar o'ziga xos farqlanishiga ega bo'lsada, ularning elementlari bir sinifga tegishli deb qaralmog'i loq'im. Bu xususiyatlar aspektual kategoriya zamondagi harakat oqimi (davomiylik, chegaralanganlik, natijaviylik va boshqalar) nuqtai nazaridan vaziyatlarni aniqlaydi degan xulosa kelib chiqadi. Demak vaziyatlar har doim ham bir gap strukturasiida aniqlana olmaydi, va shuning uchun ham aspektuallikning semantik xususiyatlari pragmatik yondashuvni talab etadi. Zamon va taksis kategoriyalaridan farqli o'laroq, aspektuallik berilgan vaziyatning tashqi "tochka otschyota" (E. V. Paducheva 1996; 34) bilan bog'liq emas. Aspektuallik vaziyatning ichki dinamikasini o'ziga xos xususiyatlarini tasvirlaydi. SHuning uchun ham aspektuallikning ifodalanishi talqini turli tillarda turli ko'rinishlarda uchraydi.

Dunyoning ko'pgina tillarida aspektual ma'nolarning keng tarqalgan modellari mavjud bo'lib, ular turli ko'rsatgichlarning semantik yaqinligiga asoslangan. Mazkur ko'rsatgichlar vazifasini turli tipdagi temporal birliklar bajaradi. Jumladan, dinamik, stativ, xabitual vaziyat ko'rsatgichlari vazifasini ko'p hollarda temporal birliklar bajaradi. Temporal birliklarning aspektual semantikaga ta'siri uning matn doirasida talqin etilishi muhimligini ko'rsatadi. Chunki temporallik vazifasi ma'lum vaziyatlarda (o'rin payt holli ergash gaplarda) butun kontekstga yuklatiladi. Til birliklarining o'zaro birikishi qonuniyatlarini kuzatish, bir tomondan, ularning ma'no xususiyatlarini oydinlashtirish imkonini bersa,



ikkinchi tomondan, bu birliklarning ma'no ko'lamini aniqlashga asos bo'ladi (SH.S. Safarov, 2013; 18).. SHuning uchun ham aspektual ma'nolar tahlili fe'l ma'nolaridan tashqarida bo'lgan boshqa til birliklari doirasida olib borilayotganligidan darak beradi. Jumladan, Z.Vendler konsepsiyasining tub mohiyatiga nazar tashlaydigan bo'lsak, unda aspektual ma'nolar butun kontekst doirasida tahlil etiladi. Muallif gapning perfektivligi yoki imperfektivligining yuzaga kelishida qator vositalar mavjudligi xususida fikr bildiradi: sub'ekt miqdori, to'ldiruvchi va hol vazifasida kelgan til birliklarining turlari, fe'lning aspektual semantikasi. Lekin Z.Vendler aspektual ma'nolar tanlovini aniqlashda baribir asosiy e'tiborini fe'l semantikasiga qaratadi. Aspektual tadqiqotlarga kompozitsional nazariyasi orqali yondashuvchilar H. Filip, 1999; 81-149. , M.Krifka, , 1992; 29-53., M.Krifka, 1998; 197-235., H. Verkuyl, 2001; 15-43, H.Verkuyl, 2002; 71-109., D. R. Dowty, 1991; 547-619., B. H. Partee, 1995; 541-601. predikatning chegaralanganlik belgisini predikatsiya tarkibidagi argumentlarning kvantativligi orqali aniqlanadi. Fe'llarni sistematik sathda leksik-semantik kategorizatsiyalash ularni quyidagi sinflarga yoki kategoriyalarga shartli tasniflash ko'zda tutuladi: harakat, jarayon, xususiyat, munosabat. Bu har qanday fe'l semantikasida o'rab turgan olamning har qanday hodisasi harakat, jarayon, holat va shu kabilar sifatida konseptuallashadi.

Fe'l kategoriyasining prototipi gap bo'lagi sifatida aniq fizik harakat fe'llar yoki aksional fe'llarda qo'llaniladi. Mazkur fe'llar aniq sub'ekt-agens, ma'lum maqsadni ob'ekt-patsiensga nisbatan yo'naltirgan va uni shaklini o'zgartirishga qaratilgan hodisalarni ifodalaydi. Qolgan boshqa fe'llar prototip yadrodan uzoqda u yoki bu jihatda konseptuallashdi, shu bilan birga ular jarayonlar (sub'ektning istagiga bog'liq), xususiyat (sub'ektga xos xarakterni ifodalovchi), holat (sub'ektning psixik va emotsional holati, jismoniy va aqliy imkoniyatlari va boshqalar), munosabat (mantiqiy munosabat turlari). Harakat fe'llarining konseptual xususiyatlarini aniqlash uchun "harakat" konsepti mazmunini va shuningdek "sub'ekt-agens" va "ob'ekt-patsiens" kabi konseptlarni tahlil qilish darkor. Boshqa kategoriyalarga tegishli fe'llarning konseptual mazmuni "jarayon", "xususiyat", "holat", "munosabat" konseptlari va ular bilan bog'liq sub'ektiv va ob'ektiv mos keladigan konseptlar tahlilida aniqlanadi.

Fe'llarning dinamiklik semantikasi quyidagi konseptual xususiyat va belgilarda aniqlanadi: 1) *sub'ektga yo'naltirilgan* (sub'ektning aniq turiga yo'naltirilgan); *faollik* (harakatni amalga oshirish uchun sub'ekt o'z energiyasini qo'llash); *boshqaruv* (o'z istagini amalga oshirishjarayonini bosharish qobiliyatini



boshqarish, ya'ni shu bilan birgama'lum natijaga erishish); 2) *ob'ektga yo'naltirilgan* (ma'lum ob'ekt turiga qaratilgan va unga ta'sir etish xususiyati) *aniq natijaga erishilish ta'sir belgisi* (ma'lum ob'ekt turi yoki shaklini o'zgarishiga erishilish); 3) *aspektal-temporal va sifatiy belgilar: vaqt jarayonida joylashuv* (vaqtning aniq ko'rsatilishi: masalan: soat beshda), *faza turlariga bo'linishi* (fazalarga bo'linish: boshlanish, tugallanish, harakatning o'rtasi); *harakatning karraligi* (bir karralik, ko'p karralik, takrorlanuchanlik); 4) *davomiylilik*. Masalan: Tom was painting the fence at 5 o'clock yesterday. Fe'llarning stativlik semantikasi konseptual xususiyatlari quyidagicha ko'rinishda ifodalanadi: 1) sub'ektning ma'lum jismoniy holatda bo'lishi; 2) sub'ektning bir holatdan ikkinchi holatga o'tishi; 3) faktativ (sub'ektga xos bo'lgan xususiyat, shuningdek sub'ektning bilim darajasi xususidagi ma'lumot, Masalan; to know the answer; 4) psixo-emotsional holati. Masalan; He is angry. Protsessual fe'llar odatda sub'ektning faolligi bilan xarakterlanadi, faollik mantiy grammatik nuqtai nazardan sub'ektga birlashtiriladi (masalan: The sun rose – quyoshning ko'tarilishi yoki botishi tilda ifodalanadi, real olamda emas). Bu kabi fe'llar odatda ob'ektsiz hisoblanadi (ma'lum ma'noda o'timsiz fe'llar guruhiga kiradi). Xususiyat fe'llari sub'ekt faolligining gipotetik va umumiy tarzda ko'rinishini belgilaydi (birlashtirilgan yoki umumlashtirilgan faollik) va shuningdek ob'ektga umumlashtirilgan-refrent ta'sir etishni aniqlaydi (masalan: He paints houses). Statal fe'llar hodisalarni ifodalaydi. Bunda sub'ekt faolligi va ob'ektga ta'siri ko'zga tashlanmaydi, ya'ni refrensiyaga ega bo'lmaydi (refrent bo'lmagan faollik va refrent bo'lmagan ta'sir: He knew his duties). Munosabat fe'llari (relyativ fe'llar),(She resembled her mother; Good work deserves good pay).

Umumjahon xarakteristikasi tufayli bu tushuncha butun dunyoda tilshunoslikda ifodalanadi. Garchi bu lingvistik tasvir turlicha bo'lishi mumkin bo'lsa-da - leksikdan grammatik so'zlar, morfemalar va zarrachalar - ko'p og'zaki tillar vaqtni takrorlash vaqtini ifodalaydi va chet tilini o'rgatish va o'rganishda katta rol o'ynaydi. Ushbu maqolada biz ushbu tilning lingua franca sifatida xalqaro ahamiyatini hisobga olgan holda ingliz tilidagi aspekt belgilariga e'tibor qaratamiz. Chet tilini o'rganishda zamon va aspektning tizimli ifodalanishini tushunish muhimligini inobatga olgan holda, ushbu maqola ingliz tili grammatikasi bo'yicha ba'zi kitoblarda aks ettirishning turli usullarini ko'rib chiqish va solishtirishga qaratilgan. Ushbu tahlil ushbu lingvistik hodisani tavsiflashda parallel sinflar va terminologiyani tan olish bilan oqlanadi. Shunday qilib, biz an'anaviy tavsiflovchi grammatika kitoblari tomonidan taklif qilingan toifalarga asosan ma'no bilan



bog'liq bo'lgan tadqiqotlar bilan ifodalanadigan muqobil yondashuv bilan taqqoslaymiz. Shunday qilib, ushbu maqola ikki bo'limda tuzilgan. Birinchi bo'limda biz dunyo universitetlarida qabul qilingan eng nufuzli beshta ingliz grammatika kitobida aspektga qanday yondashish haqida umumiy ma'lumot beramiz. Ikkinchi bo'limda biz ushbu grammatika kitoblari tomonidan taqdim etilgan asosiy ta'riflar va toifalarni taniqli Bernard Komrining "Aspekti: og'zaki aspektni o'rganishga kirish" va tegishli muammolarni o'rganish nuqtai nazaridan taqqoslaymiz.

References.

1. Dowty D. Thematic proto-roles and argument selection. *Language* 67: 1991. – P. 546-619
2. Filip H. Events and Maximalization: The Case of telicity and Perfectivity // plaza.ufl.edu/hfilip
3. Krifika M. The morphological approach to aspectual composition //Paper presented at the perspectives on aspect. University of Utrecht. 2001
4. Langacker R.W. Foundations of Cognitive Grammar, Volume 1: Theoretical Prerequisites.-Stanford: Stanford University Press, 1987. – 248 p.
5. Langacker R.W. Grammar and conceptualization.–Berlin / New York. 1999. –P. 67
6. Langacker R.W. The English present tense //English Language and Linguistics, 2001.5 (2): –P. 251–272.
7. Levin B., Rappaport M. The lexical semantics of verbs of motion: The perspective from unaccusativity”. In I.M. Roca (ed), *Thematic Structure: Its Role in Grammar*. Berlin: Mouton de Gruyter, 1992.–P. 247-269.
8. McCauley J. D. Notes on the English perfect // *Australian journal of linguistics*, 1, 1981. –P. 81–90.
9. Napoli D. J. Secondary Resultative Predicates in Italian // *Journal of Linguistics* 28, 1992. –P.53-90.
10. Nevskaya I. Converbs as depictive secondary predicates in South Siberian Turkic // *Turcology in Mainz / Ed. by H. Boeschoten, J. Rentzsch*. Wiesbaden: Harrassowitz, 2010. (Turcologica 80).–P. 191–200.
11. Verkuyl H. J. Formal Semantics Course. Lectures delivered in the St. Petersburg State University, 2002. –P. 71-109.
12. Verkuyl H. J. Aspectual Issues // *Structuring Time and Quantity*. CSLI Lecture Notes, Vol. 98, Stanford, California. 1999.